

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60910400 - Tibbiy profilaktika ishi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent tibbiyot akademiyasi

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil «07» 08 dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60910400-Tibbiy profilaktika ishi</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	<i>60910400-Tibbiy profilaktika ishi</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2	<i>60910400-Tibbiy profilaktika ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	<i>60910400-Tibbiy profilaktika ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60910400-Tibbiy profilaktika ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining obyektlari.....	5
1.2.3.	<i>60910400-Tibbiy profilaktika ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining turlari.....	6
1.2.4.	<i>60910400-Tibbiy profilaktika ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarining kasbiy vazifalari.....	6
2.	<i>60910400-Tibbiy profilaktika ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	9
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	9
2.2	Kasbiy kompetensiyalar.....	9
2.3	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	13
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	14
2.3.2.	<i>60910400-Tibbiy profilaktika ishi</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar	14
2.3.3.	<i>60910400-Tibbiy profilaktika ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi	14
	Bibliografik ma'lumotlar.....	16
	Kelishuv varag'i.....	17

1.60910400 – Tibbiy profilaktika ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishining tavsifi

60910400 – Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati – 5 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60910400 - Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.

Tibbiyot va farmasevtika oliy ta'limning ushbu malaka talablari **60910400 - Tibbiy profilaktika ishi** ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlash o'quv reja va modul dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi barcha tibbiyot va farmasevtika oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuasini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha Malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otionalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60910400-Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60910400 – Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60910400–Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishi – fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi yshnalishi bo'lib, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb- xunar ta'limi muassasalarida ta'lim yo'nalishig oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy – tadqiqot institutlari, davlat boshqaruv organlari ,umumiy o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat

muassasalarida kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar ajmuasini qamrab oladi. Sog'liqni saqlash tizimining davolash-profilaktika muassasalari (respublika, viloyat, shahar, tuman va tarmoq (O'zbekiston havo yo'llari, O'zbekiston temir yo'llari va boshqalar) Davlat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati markazlarida, OITS qarshi kurash markazlarida, patologik anatomiya markazlarida, sud-tibbiyot ekspertiza markazlarida, atrof-muhit obyektlarini sanitariya holatini o'rganish, gigiyenik baholash va profilaktik tavsiyalar ishlab chiqish faoliyatini olib borish; aholi yashash joylari atrof-muhitini sanitariya muhofazasiga yo'naltirilgan tibbiy-profilaktik muammolar bo'yicha asosiy vazifalarni hal qilish, sanitariya-gigiyenik reglament va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq qilish faoliyatini olib borish; sog'liqni saqlash tizimining barcha bo'g'inlarida sanitariya-gigiena sohasida kompleks masalalarni yechishni qamrab oladi. Bundan tashqari:

- ichimlik suvi va suv ta'minoti qurilmalarini loyihalarini sanitariya ekspertiza qilish va loyiha bo'yicha xulosa berishni o'rganish;

- kanalizatsiya tizimi qurilmalarini loyihalarini sanitariya ekspertiza qilish va loyiha bo'yicha xulosa berishni o'rganish;

- tashqi muhit omillari, ichimlik suvi, atmosfera havosi, tuproq, barcha turdagi oziq-ovqat xom ashyo va mahsulotlaridan namunalar olish va laboratoriya tahlillarini o'tkazish;

- yangi turdagi xom ashyolar, qurilish materiallari, pestitsidlar bo'yicha gigiyenik me'yorlarni matematik modellarini qo'llash;

- atrof muhit ob'ektlarini ifloslanishdan muhofazalash bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- aholi turli guruhlarining (bolalar, o'smirlar, ishchilar) salomatlik holatini tahlil qilish va monitoringni olib borish;

- aholi o'rtasida yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarning epidemiologik jarayonini o'rganish va tahlil qilish;

- aholining radiatsion xavfsizligini ta'minlash;

- aholi orasida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shaklantirish ularning jismoniy, tibbiy faolligini oshirish;

- nazorat ostidagi ob'ektlarda sanitar-gigiyenik, radiologik va epidemiologik tekshirishlar o'tkazish;

- O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv organlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va uning tasarrufidagi tashkilotlar, sog'liqni saqlash boshqarmalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati markazlari va bo'linmalari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutlari, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar turli xil shakldagi mulk, xususiy tibbiyot, biznes tashkilotlari va boshqalarda kasbiy faoliyat yuritish.

1.2.2. 60910400–Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi hududiy boshqarmalari va bo'linmalari;

- OITS qarshi kurash markazlarida;
- patologik anatomiya markazlarida;
- salomatlik instituti va uning filiallari;
- ilmiy-tadqiqot institutlari;
- dezinfeksion stansiyalar;
- ko‘p tarmoqli kasalxonalar;
- sanitariya-gigiyenik reglament va me‘yoriy hujjatlar, sog‘liqni saqlash tizimiga tegishli dasturlar, standartlar, ilmiy maqolalar, tezislar, me‘yoriy hujjatlar, ma‘lumotnomalar, hisobotlar; tibbiyot asbob-uskunalari, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi;
- yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalari qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin;
- ilmiy-tadqiqot jarayoni.

60910400–Tibbiy profilaktika ishi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

- barcha turdagi obyektlarning loyihalarini sanitar-ekspertizadan o‘tkazish;
- aholining turli guruhlarida kasallanish holatini o‘rganish;
- aholi turar joylari va ishchi mintaqasida radiatsion fonni o‘rganish;
- operativ va retrospektiv epidemiologik tahlil qilish;
- turli xil oziq-ovqat mahsulotlarini ozuqaviy va biologik qiymatlarini aniqlashda matematik modellarini qo‘llash;
- bolalar va o‘smirlarning aqliy va jismoniy rivojlanishini gigiyenik baholash;
- atrof-muhitni muhofazalash va aholi kasallanishini kamaytirish bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqish.

1.2.3. 60910400–Tibbiy profilaktika ishi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy-tadqiqot;
- tibbiyot profilaktikasi;
- axborot tahliliy;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati kabilarni o‘z ichiga oladi.

1.2.4. 60910400 –Tibbiy profilaktika ishi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari

60910400–Tibbiy profilaktika ishi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavrlarning kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob‘ektlari va turlariga muvofiq bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqarishi;
- davlat sanitariya–epidemiologiya nazoratini tashkillashtirish va boshqarishi;
- sanitariya qoida va me‘yorlar, gigiyenik normativlar, davlat mehnat xavfsizligi standartlari tizimi, qurilish me‘yor va qoidalarini ishlab chiqarishda amaliy va uslubiy yordam berishi;
- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishi;

–sanitariya–epidemiologiya nazorati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqishi va tadbiq qilishi;

–sanitariya–epidemiologiya nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan jarayonlari va resurslarini rejalashtirishi;

–zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqishi;

–ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilishi va boshqarishi;

–fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilishi;

– bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

– fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilish, O‘zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga:

– dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lish, mustaqil taxlil qila olish, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilish;

– Vatan tarixini bilish, ma‘naviy milli va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

– xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiyo ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zarur bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasbiy faoliyatida foydalana bilishi;

– axborat yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qila olish:

– tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy taylrgarlikka ega bo‘lishi;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

– sohaga oid innavasiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

– ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

– fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

– bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan natijalarni baholash;

– mehnat jarayonida xavsizlikni ta‘minlash bo‘yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobilyatiga ega bo‘lish;

– atrof-muhitni muhofza qilish va mehnat xavsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

– sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavurga ega bo‘lishi, hamda e‘tiqodga, o‘zining jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nmkmalarga ega bo‘lish;

– namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo‘llash;

– gigiyenik, mikrobiologik va epidemiologik jarayonlar qo‘llaniladigan ishlab chiqarishda, sog‘liqni saqlash korxonalarida, qishloq xo‘jaligida va kasbiy faoliyatiga talluqli zavod va korxonalarda belgilangan tartibda faoliyat ko‘rsatish;

– pullik xizmatlarni tashkil etish va amalga oshirish;

– ixtisoslikka mos mavzu buyicha turli xizmatlarni ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim;

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

– ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda tibbiy profilaktika ishiga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etishi;

– internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirishi va topishi;

– tibbiy-profilaktika ishiga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va horijiy ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o‘rganishi;

– kasbiy faoliyat ob‘ekti yo‘nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o‘rganishi;

– ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda, davlat sanitariya epidemiologiya nazorati markazlarida eksperimental tadqiqotlar o‘tkazishi, ularning natijalariga ishlov berishi, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarishi;

– ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlashi, soha oid adabiyotlarni ekspertizasini amalga oshirishda qatnashishi;

– tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashishi;

– ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etishi;

– ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish, ilmiy-amaliy mavzuviy jurnallarga maqolalarni tayyorlash.

Tibbiyot profilaktikasi faoliyatida:

– Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi (SEO va JS) nazorat ostidagi obyektlarda (xizmat ko‘rsatish shaklidan qat‘iy nazar) ogohlantiruvchi va joriy sanitariya nazoratlari bo‘yicha amaliy faoliyatini mustaqil olib borishi;

– sog‘lomlashtirish, sanitar-gigiyenik va profilaktik chora-tadbirlar kompleksini mustaqil tarzda ishlab chiqish, muvofiqlashtirishi va o‘tkazishi;

– ishlovchilar orasida sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish ularning jismoniy, tibbiy faolligini oshirishi;

– gigiyena yo‘nalishida qo‘llanilayotgan ilg‘or profilaktik tadbirlarni o‘rganishi va amaliyotga tadbiq etishi;

– gigiyena yo‘nalishida profilaktik chora-tadbirlarini tashkillashtirish bo‘yicha to‘liq hajmdagi zaruriy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassis sifatida mustaqil amaliy faoliyatni amalga oshirishni egallash va baholash qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

Axborot tahliliy faoliyatida:

– boshqaruv qarorlarni qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

– qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma’lumot to‘plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

– tashkilotning ichki hujjat aylanish tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yuritish;

– loyihalar samaradorligini baholash;

– axborot tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobotlar tayyorlash;

- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.
- Pedagogik faoliyatida (umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlim tizimida):

- umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlim tizimining taʼlim muassasalarida tayyorgarlik yoʻnalishida nazarda tutilgan oʻquv fanlari boʻyicha tibbiy fanlardan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nazariy hamda amaliy mashgʻulotlarni oʻtkazish;

- oʻquv jarayonini tashkil etish va oʻtkazilishiga koʻmaklashishi, tadqiqotlarda ishtirok etish; maʼlumotlarni toʻplash, umumlashtirish va tahlil etish;

- oʻqitilayotgan fanlar boʻyicha dars mashgʻulotlarini oʻtkazish uchun zarur boʻlgan oʻquv-metodik hujjatlarni shakllantirish, tuzish va ularni tadbiq etish;

- mustaqil taʼlim va ijodiy qidiruv natijasida oʻqitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida oʻz-oʻzini muntazam takomillashtirib borish.

2.60910400-Tibbiy profilaktika ishi taʼlim yoʻnalishi boʻyicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qoʻyiladigan talablar

2.1 .Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, toʻgʻri xulosa chiqarish madaniyatini shakllantirish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar boʻyicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega boʻlishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- axborot texnologiyalarni kasbiy faoliyatida qoʻllay bilish, axborot yigʻish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan boʻlishi, oʻz kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega boʻlishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va oʻz kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda maʼnaviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

- tegishli bakalavriat yoʻnalishi boʻyicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega boʻlishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, oʻz ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- sogʻlom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati toʻgʻrisida ilmiy tassavvur hamda eʼtiqodga, oʻzini jismoniy chiniqtirish oʻquv va koʻnikmalariga ega boʻlishi lozim.

2.2.Kasbiy kompetensiyalar:

- aholi yashash joylari sharoitida insonlarga atrof-muhitning tabiiy va ijtimoiy omillarini taʼsirini baholash koʻnikmalariga ega boʻlish;

- atmosfera havosi, ichimlik suvi, suv havzalari va tuproq holatini gigiyenik baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- aholi turar joylari, davolash profilaktika muassasalari, turar joy va jamoat binolarini rejalashtirish, obodonlashtirish va sanitariya-sog‘lomlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- ogohlantiruvchi va joriy sanitariya nazoratini o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- havo muhiti, ichimlik suvi, ochiq suv xavzalari, tuproq, kichik iqlim, turar joy va jamoat binolari quyosh nuri radiatsiyasining gigiyenik ko‘rsatkichlarini tekshirish usullari qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- sog‘lom ovqatlanish asoslari va ovqatlanishning zamonaviy nazariyalarini tadbiiq etish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- organizmining sutkalik energiya sarfini aniqlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
- asosiy moddalar almashinuvi, ovqatning spesifik-dinamik ta‘sirini va turli faoliyatlarga ketgan quvvat sarfini aniqlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- oziq-ovqat mahsulotlarining gigiyenik ekspertizasi sut, go‘sh, kolbasa, baliq, un va non mahsulotlari, yog‘ va moylar, yaxna ichimliklar va bankali konservalarni gigiyenik baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- tayyor mahsulotlar kaloriyasi va tarkibidagi oziq moddalar miqdorini aniqlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi begona moddalarga baho berish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- profilaktik va parhez ovqatlanishni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- ovqatlanish gigienasi bo‘limida ogohlantiruvchi va joriy sanitariya nazoratini o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- umumiy ovqatlanish korxonalarini, savdo korxonalariga qo‘yiladigan gigiyenik talablar va ularni nazoratini olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- bozorlarni sanitar-gigiyenik tekshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- sut, go‘sh, baliq, qandolat, yaxna ichimliklar ishlab chiqarish korxonalariga qo‘yiladigan gigiyenik talablar va shu korxonalarni sanitariya nazoratini olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- oziq-ovqat mahsulotlarini sanitariya-epidemiologik ahamiyati va ovqatdan zaharlanish profilaktikasini ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- bolalar va o‘smirlar jamoasining salomatlik holatini o‘rganishning gigiyenik asoslash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- turli ta‘lim muassasalarini loyihalashtirish va qurishning gigiyenik baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- TTMLarida o‘quv-tarbiyaviy, o‘quv va o‘quv-ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning gigiyenik mezonlari va baholash usullarini qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- bolalar va o‘smirlarni ovqatlanishiga qo‘yiladigan gigiyenik talablarni amaliyotga tadbiiq qilish;

- bolalar va o‘smirlar o‘yinchoqlari, kiyimlari, o‘quv darsliklari, jihozlariga qo‘yilgan gigiyenik talablarni amaliyotga tadbiiq qilish;
- o‘smirlarni kasbga yo‘naltirishning gigiyenik talablarini amaliyotga tadbiiq qilish;
- yozgi sog‘lomlashtirish maskanlarida bolalar va o‘smirlarni sog‘lomlashtirish ishlariga qo‘yilgan gigiyenik talablarni bilish;
- rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar va o‘smirlar muassasalarining gigiyenik asoslarini bilish;
- bolalar va o‘smirlar muassasalarida ogohlantiruvchi va joriy davlat sanitariya nazoratini olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- organizmga nurlanuvchi radiatsiyalarning ta‘sirini asosiy qonuniyatlarini bilish;
- tashqi va ichki nurlanishning yo‘l qo‘yiladigan darajasi, bu radiatsion xavfsizlikning asosi ekanligini bilish;
- sanitar dozimetrik nazoratini o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- yopiq ionlantiruvchi nurlanuvchi manbalar bilan ishlashda himoyalanih tamoyillarini bilish;
- radioaktiv ifloslanishdan tashqi muhitni va aholi salomatligini muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.
- radiatsion avariylar, turlari va ularning oqibatlarini bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- O‘zbekiston Republikasida qurolli kuchlarni sanitariya-gigiyena ta‘minotini tashkil etish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- qo‘shinlarni joylashishi, dala sharoitlarida qo‘shinlarning suv ta‘minoti va sifatini gigiyenik nazorati, harbiy xizmatchilarni ovqatlanishi ustidan sanitariya nazorati o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- ommaviy qirg‘in qurollarini ishlatish sharoitida sanitariya nazoratining vazifalarini bilish;
- xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari, ularning organizmga ta‘siri, oldini olish sog‘lomlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- toksikologik tadqiqotlarni o‘tkazishni umumiy asoslari, sanitar-texnik qurilmalarga qo‘yiladigan gigiyenik talablarini bilish;
- pestitsidlarni ishlab chiqarishda va qo‘llanilishida xavfli omillarni aniqlash va baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lish.
- ishlovchilar salomatligini tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- ishlab chiqarish ob‘ektlarida davlat sanitariya nazoratini o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- turli sanoat ishlab chiqarish korxonalarida zararli va xavfli omillarni gigiyenik baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- atrof-muhit omillari (ichimlik suvi, tuproq, atmosfera havosi, suv havzalari) ularning aholi salomatligiga ta‘siri, atrof-muhit omillarining ifloslanishini oldini olish sog‘lomlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- atrof-muhit omillarida kimyoviy moddalarning gigiyenik me'yorlashtirish bo'yicha toksikologik tadqiqotlarini o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- turar joy va jamoat binolarining (davolash profilaktika muassasalari, sport sog'lomlashtirish muassasalari, madaniy-maishiy muassasalar) rejalashtirishning gigiyenik asoslari va talablarini bilish;
- aholi turar joylarining (shahar, kvartal, mavzalar, massivlar) rejalashtirishning gigiyenik asoslarini bilish;
- aholi salomatligini o'rganish usullari va salomatlik ko'rsatkichlarini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- aholi turar joylarining sanitariya tozalash tizimini tashkillashtirishning gigiyenik asoslarini bilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kommunal ob'ektlarda davlat sanitariya nazoratini o'tkazish shakllari, bosqichlari va asoslarini bilish va o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- aholi salomatligi - uni o'rganish usullari, ijtimoiy-gigiyenik ahamiyati, ijtimoiy-gigiyenik omillar va turmush tarzini aholi salomatligini shakllanishidagi tutgan o'rnini bilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- eng muhim xastaliklar, ularning ijtimoiy-gigiyenik ahamiyati, sog'liqni saqlashning nazariy asoslari, shahar va qishloq aholisiga tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil qilish, onalik va bolalikni himoyalash, sanitariya epidemiologiya xizmati, sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, tibbiy-mehnat ekspertizasini tashkil qilish, sog'liqni saqlashni boshqarish, rejalashtirish, mablag' bilan ta'minlash asoslarini bilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish.
- sog'liqni saqlash tizimida boshqaruvchanlik toifalari, marketing va uning tamoyillari, ehtiyojlari, bozor, marketing xizmati, bozor iqtisodiyoti sharoitida narx-navoning shakllanishini bilish va marketingni boshqarish, ehtiyojlik holati va bozor iqtisodiyoti sharoitida salomatlikni himoyalashni tashkil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- yuqumli kasalliklarni o'rganishda epidemiologik yondoshuv ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tibbiy ta'lim tizimida va zamonaviy tibbiyot fanlari orasida epidemiologiyaning tutgan o'rnini bilish;
- epidemiologik tekshiruv usullarini bilish va qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- noinfeksion kasalliklar epidemiologiyasi, epidemik jarayon to'g'risidagi ta'limot, yuqumli kasalliklar tavsifi va qo'zg'atuvchilarning evolyusion taraqqiyotini bilish;
- zooantropozoonoz kasalliklarda sanitariya-veterinariya tadbirlarini ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- o'choqli dezinfeksiya, dezinfeksiya, deratizatsiya, DPM larda DDD va sterilizatsiyaning sifati va samaradorligini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- immunoprofilaktikani tashkil etish va o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ich terlama, paratif A va V, salmonellezlar tavsifi, virusli gepatitlar tavsifi, poliomielit, vabo, ichak iersiniozlari epidemiologiyasi va profilaktikasini bilish va uni o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lish;

– rotavirusli infeksiyalarning, gripp, ORVI va atipik pnevmoniya, koronavirus infeksiyasi, difteriya, ko‘kryo‘tal, qizamiq, meningokokk infeksiyasi, tepki, qizilcha – epidemiologiyasi va uning profilaktikasini bilish va uni o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– nozokomial infeksiyalari, streptokokkozlar epidemiologiyasi va profilaktikasini bilish va uni o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– tuberkulez epidemiologiyasi va profilaktikasini bilish va uni o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– quturish, qoraoqsoq, kuydirgining epidemiologiyasi va profilaktikasini bilish va uni o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– rikketsiozlar epidemiologiyasi va profilaktikasini bilish va uni o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– Ku-isitmasi, kanali rikketsioz, Astraxan toshmali isitmasi, toshmali tif, Brill kasalligi epidemiologiyasi va profilaktikasini bilish va uni o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– o‘lat kasalligining epidemiologiyasi va profilaktikasini bilish va uni o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– qon infeksiyalari, gemorragik isitmalar, Lassa, Ebola, Denge, G‘arbiy Nil isitmasi, Sariq isitma epidemiologiyasi va ularning profilaktikasini bilish va o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

COVID-19 infeksiyasi epidemiologiyasi va profilaktikasini bilish va uni o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lish:– operativ epidemiologik tahlilni tashkillashtirish va o‘tkazish usullarini bilish va qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– O‘zbekiston Respublikasida Davlat epidemiologik nazoratini tashkillashtirish va o‘tkazish, tuman SEO va JS qo‘mitasining epidemiologiya bo‘lim strukturasi, shtatlari, ish faoliyatini tashkillashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

2.3 Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotga qo‘yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta‘minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta‘lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: gigiyena-epidemiologiya shifokori.

2.3.2. 60910400-Tibbiy profilaktika ishi ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	7710	257
Tanlov fanlar	570	19
Malakaviy amaliyot	600	20
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

2.3.2 60910400-Tibbiy profilaktika ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	7710	257	
1.01	O‘YT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	FS1304	Falsafa	120	4	3
1.03	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.04	O‘RTTXT11208	O‘zbek (rus) tili. Tibbiyotda xorijiy til	240	8	1,2
1.05	TBUG1106	Tibbiy biologiya. Umumiy genetika	180	6	1
1.06	TK1204	Tibbiy kimyo	120	4	2
1.07	LT1104	Lotin tili va tibbiy terminologiya	120	4	1
1.08	BF1104	Biofizika	120	4	1
1.09	MK11206	Mutaxassislikka kirish	180	6	1,2
1.10	TAT1204	Tibbiyotda axborot texnologiyalari	120	4	2
1.11	OAN112312	Odam anatomiyasi	360	12	1,2,3
1.12	GS12308	Gistologiya, sitologiya, embriologiya	240	8	2,3
1.13	BK13408	Biokimyo	240	8	3,4
1.14	FZ13408	Normal fiziologiya	240	8	3,4
1.15	TPS1403	Tibbiy psixologiya	90	3	4
1.16	M14508	Mikrobiologiya, virusologiya,	240	8	4,5

		immunologiya			
1.17	PAN15606	Patologik anatomiya	180	6	5,6
1.18	PFZ15606	Patologik fiziologiya	180	6	5,6
1.19	FR1504	Farmakologiya	120	4	5
1.20	GTEK13412	Gigiyena. Tibbiy ekologiya	360	12	3,4
1.21	STVF1903	Sud tibbiyoti, vrach faoliyatini huquqiy asoslari	90	3	9
1.22	IKXDT14507	Ichki kasalliklar, HDT	210	7	4,5
1.23	XKTR15709	Xirurgik kasalliklar. Travmatologiya va ortopediya, HDJ	270	9	5,6,7
1.24	AGPD15706	Akusherlik va ginekologiya. Pediatriya	180	6	5,7
1.25	FTDV1704	Ftiziatriya. Dermatovenerologiya	120	4	7
1.26	NTGPSN1806	Nevrologiya va tibbiy genetika. Psixiatriya va narkologiya	180	6	8
1.27	YKBYK1806	Yuqumli kasalliklar. Bolalar yuqumli kasalliklari	180	6	8
1.28	KK11003	Kasb kasalliklari	90	3	10
1.29	OTOFT1903	Otorinolaringologiya. Oftalmologiya	90	3	9
1.30	JSMM11004	Jamoat salomatligi, marketing va menejment	120	4	10
1.31	EXE16-1018	Epidemiologiya. Harbiy epidemiologiya	540	18	6,7,8,9,10
1.32	KG16-1014	Kommunal gigiyena	420	14	6,7,8,9,10
1.33	BO'G16-1014	Bolalar va o'smirlar gigiyenasi	420	14	6,7,8,9,10
1.34	OG16-1014	Ovqatlanish gigiyenasi	420	14	6,7,8,9,10
1.35	MG16-1014	Mehnat gigiyenasi	420	14	6,7,8,9,10
1.36	RGXG191006	Radiatsion gigiyena. Harbiy gigiyena	180	6	9,10
2.00	TF2	Tanlov fanlar	570	19	
2.01		<i>Tanlov fanlar</i>	510	17	3,4,5,6,7,8
		<i>Jami</i>	8280	276	
	MM2-520	Malakaviy amaliyot	600	20	1,2,3,4,5,6,7,8,9
	BAKYDA504	Birlamchi akkreditatsiya bilan yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	10
		<i>Jami</i>	720	26	
		HAMMASI	9000	300	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK:61:796/799

Guruh S 73

Oks 75.0

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, o'quv davri, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, tibbiy profilaktika ishi, aholi salomatligi, atrof-muhit gigiyenasi, ogohlantiruvchi va joriy davlat sanitariya nazorati, bolalar va o'smirlar gigiyenasi, turli ta'lim muassasalari, ta'lim-tarbiya jarayoni, ovqatlanish gigiyenasi, davlat va nodavlat oziq-ovqat korxonalarida davlat sanitariya nazorati olib borish, kommunal gigiyena, suv, tuproq, aholi turar joylari, mehnat gigiyenasi, radiatsion gigiyena, turli ishlab chiqarish korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayoni, bosqich, radiatsion xavfsizlik, shaxsiy himoya vositalari, sanitariya maorifi ishi, epidemiologiya, yuqumli va somatik kasalliklar epidemiologiyasi, OITS, VICH. Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar este'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent tibbiyot akademiyasi,
"Sog'liqni saqlash" ta'lim sohasi bo'yicha
muvofiqlashtiruvchi soha Kengashi raisi,


Rektor A.K. Shadmanov
2023-yil "01" 08


KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor Sh. Yakubov
2023-yil "02" 08
M.O'.



Toshkent pediatriya tibbiyot instituti,
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari
rektorlar rayosati raisi


Rektor B.T. Daminov
2023-yil «03» 08





O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni
saqlash vazirligi
Ilm-fan va ta'lim boshqarmasi

Boshliq O'.S. Ismailov
2023-yil "04" 08
M.O'.



Toshkent shahar sog'liqni saqlash
bosh boshqarmasi


Boshliq A.V. Alimov
2023-yil "05" 08
M.O'.



Toshkent tibbiyot akademiyasi 60910400-Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“24” 04 2023-yil

Biz quyidagi imzo chekuvchilar – Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori A.K.Shadmanov, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori B.T.Daminov, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Ilm-fan va ta'lim boshqarmasi boshlig'i O'.S.Ismailov, Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi boshlig'i A.V.Alimov birgalikda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60910400-Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishi

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiy sohalar va tarmoqlarning ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son Qarorlari hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy xijjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori

B.T.Daminov

Sog'liqni saqlash vazirligi Ilm-fan va ta'lim boshqarmasi boshlig'i

O'.S.Ismailov

Toshkent shahar Sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi boshlig'i

A.V.Alimov

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori

A.K.Shadmanov